

**“Boburnomada” forscha sifatga doir joy nomini bildiruvchi  
so`z va so`z birikmalarining qo`llanilishi.**

*Jizzax davlat pedagogika instituti  
O`zbek tili va adabiyoti fakulteti  
katta o`qituvchisi **Abdulhamid Abduvaliyev,**  
Jizzax davlat pedagogika instituti  
O`zbek tili va adabiyoti fakulteti  
o`qituvchisi **G`ayrat Isroilov***

Zahiriddin Muhammad Bobur qisqa umr o`tkazgan bo`lsada, o`zining salmoqli asarlari bilan sharq va g`arb mutafakkirlarini jalb qila oldi. Uning asarlari butun dunyo tillariga tarjima qilindi. Uning **“Boburnoma”** asari O`rta Osiyo, Afg`oniston, Hindiston va Eron xalqlari o`rtasida qimmatli asar sifatida tan olingan. Tili va uslubining go`zalligi va mazmunining rang-barangligi bilan nom qoldirgan. Bu asarning qo`lyozma shakllari ko`pgina sharq va g`arb davlatlarining kutubxonalarida saqlanmoqda.

Tarjimonlar tomonidan juda ko`p xalqlarning tiliga tarjima qilingan. Boburdan qolgan bu adabiy meros asarida juda ko`p O`rta Osiyo, Afg`oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, etnografiyasi va toponimiyasiga asos slogan. Bu xalqlarga taaluqli bo`lgan jug`rofiy nomlar, kishi ismlari, o`simlik va boshqa atamalar ham bu asarda o`z o`rnini topgan. Har bir joy nomlari bu asarda o`z o`rnini topgan. Adib o`zining tarixiy asrda joy nomlari haqida alohida e`tibor bergan. Asarda turkiy tilda ko`rsatilgan joy nomlari bilan bir qatorda forscha sifat ma`nolarida qo`llangan so`z va so`z birikmalari ham mavjud. Masalan:rang ma`nosini anglatuvchi joy nomlari. Yashil va ko`k rangni bildiruvchi so`zlar asosan qo`shma so`z sifatida berilgan. Asarda joy nomlari forscha aniqlovchili va qaratqichli birikmalar tarzida berilgan. Masalan:

- *Sulton Ma`sud mirzo ham Samarqand dag`dag`asi bilan Shahrisabz ustiga keldi.(B-37-b)*

- *Andin Feruza darvozasigacha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yog`ochlarin ekturubtur.(B-44-b)*

Gaplardagi *sabz, feruza* so`zlari hozirgi o`zbek tilida *ko`k, yashil* ranglarni ifodalab kelgan. Aslida asardagi **“Shahrisabz”** so`zi fors irofasi yordamida shahrisabz qabilida (*yashil shahar*) ma`nosida kelishi kerak. **Ko`k** rangni ifodalovchi o`zbekcha so`zlar ham mavjud, *Ko`k saroy (o`-f)-(31-b), Qo`shgunbar (o`+f) 132-bet* kabi qo`shma so`zlar mavjud.

**Siyoh** va **qora** so`zlari yordamida kelgan so`zlar ham mavjud:

- *Siyoh sang* va *Suman qo`g`on* va *Cholok bo`lg`ay, mushriffur. (117-bet)*

*Sharqi siyohrang o`langidur (118-b)*

*Siyohsang* o`zbek so`zlari kabi **“Qora tosh”** ma`nosida qo`llangan.

Asarda qora rang ma`nosida kelgan forscha, o`zbekcha so`zlar ham mavjud.

**Siyoh + ob (qora +su)** so`zi qisqartirilgan **Siyob** (*qora suv*). Masalan: - *Koni gil, Siyohob yoqasidadur kim, bu qora suvni Obi zahmat ham derlar* ("Boburnoma"- 46 – bet). Joy nomini bildiruvchi qora rangni ifodalovchi o`zbekcha+forscha so`z o`zbekcha so`zlardan iborat so`zlar ham mavjud.

Masalan: -*bu yurtidin ko`chib, Qorabog` yonidagi Oqsaroy o`langiga tushuldi.*(114-b)

Qizil rangni ifodalovchi so`zlar yordamida ham joy nomini anglatuvchi ham forscha ham o`zbekcha nomlar qayd qilingan. Qizil rangni ifodalovchi qo`shma so`zlar aslida **forsirfasi** yordamida yasaliishi kerak edi, lekin ko`proq o`zbekcha so`z tarkibida (aniqllovchi+aniqlanmish) shahrida ishlatilgan, bu kabi so`zlar ham *forscha + forscha, o`zbekcha +forscha* qolipida ketganligini ko`ramiz.

- *Qizil dary Surxurud*(121-b), *Qizilsuv-Surxob*(129-bet).

- *Odinapur qo`rg`onining janub tarafi Surxrudtur* (121-b)

- *Xurd Kobil va Surxob tarafi qulami ham bo`lur* (129-bet)

Boburnomada juda ko`p fors izofasi yordamida kelgan joy nomlari ham qo`llangan. Fors izofasi yordamida kelgan joy nomlari qo`llangan. Fors izofasi yordamida kelgan joy nomlari forscha aniqlanmish+aniqlanuvchi tarzda, ya`ni o`zbekcha so`z brikmasining teskari shaklida berilgan. Shuni ta`kidlash lozimki, izofali birikma yordamida qo`llangan joy nomlari, asosan lozimki, izofali birikmasi yordamida qo`llangan joy nomlari asosan forscha so`z shaklida berilgan.

Aniqllovchi birikmalar tarkibida forscha so`z shakli berilgan. Aniqllovchi birikmalar tarkibida asosan sifatdosh, sifat, kabi so`zlar qo`llangan. Masalan: Shaxrisabz {yashil shahar}, Pushtai ko`hkak {tog`chaning orqasi} {44,45,46,-bet}, Pushtai Aysh {61-bet}, Dunyoyi foniy {13-bet}, Darbandi Ohanin {113-bet} {Temirli yopiladigan eshik}, Lolayi gulboy {124-bet}, Bog`i nav {170-bet}, Bog`i Jaxon aro {172-bet}, Bog`i nazargoh, Bog`i poshog`arv {175-bet}, Bog`i Kalon {katta bog`} {125-bet}, Olami bevafo {356-bet} kabi aniqllovchili birikmalarda sifatga doir so`zlar ishlatilgan.

Asarda hozirgi va o`tgan zamon sifatdoshian yasalgan so`z birikmalari ham mavjud . Fors tilida hozirgi zamon sifatdoshlari hozirgi zamon feli negiziga **-o,-on- ,onda** qo`shimchalari yordamida yasaladi. Ushbu qo`shimchalar yordamida yasalgan joy nomlari ham mavjud. Masalan, **gurashtan o`tmoq** so`zining hozirgi zamon shakli **guzar {o`t}** so`ziga **-o** qo`shimchasi qo`shilgan holda o`tadigan, o`tuvchi ma`nosida joy nomlari berilgan. Ahli guzaro {o`tib ketadigan odamlar} {225-bet}, Ro`bayi parron {uchadigan tulki} so`z birikmalari qo`llanilgan.

O`tgan zamon sifatdoshi fors tilida o`tgan zamon fel negiziga **{-e}-a** qo`shimchalarini qo`shish orqali yasaladi. Ushbu qofiyada kelgan joy nomlari ham mavjud. Masalan – **Daryoyi Xo`rda ulug` ko`l edi, suv maslahatiga ushbu yerga tushuldi**{349-bet}. Jumladagi **daryoyi xo`rda ko`l edi, Xo`rda {yegan daryo}**sahlida kelgan. „*Qasidai burdaning qasidai maqbul tushub*”{318-bet} Asarda o`tgan zamon

sifatdoshiga doir **sangi taroshida** {301-bet} yunilgan tekislangan tosh, Turdi betni xushtarda {301-bet} kabi soʻz birikmalaridan tashkil topgan joy, koʻl, togʻ maʼnosidagi soʻzlar qoʻllangan: *Abdulla dedilarki*, „**CHashmai podshohiyi Turdibek xushharda demoq kerak** {301-bet}. Bu gapda fors izofasi yordamida forsiy zanjirdan iborat boʻlgan joy nomlari, buloq chashida nomi berilgan.

Ushbu maqolada forscha soʻz, soʻz birikmalari yordamida yasalgan joy nomlari haqida qisqa maʼlumot beriladi. Chunki sifat turkumiga doir soʻzlardan tashqari, asarda ot, sifat, fel, sifatdoshlardan iborat joy nomlari ham mavjud. Bular asosan qaratqichli birikmalardan iborat. „Boburnomada“da joy nomini ifodalashda forscha feʼllar doir soʻzlarda tashkil topgan soʻz birikmalari ham mavjud. Masalan, **boftan-toʻqimoq** soʻzining hozirgi zamon shakli **bof –toʻqi** soʻzi yordamida yasalgan joy nomi ham soʻz necha joyda takrorlangan. „**Devonayi zamobof**“ {42-bet} **{Toʻntikuvchi devona}**, **Bogʻi Dilkusho** {44-bet} - **{Koʻngilochar bogʻ}**, **Darbandi Ohanin** **{Temirli yopiladigan eshik}** {113-bet}, **Xoʻjayi Koʻrdran** **{Pichoq uruvchi Xoʻja}** kabilar. Gaplardagi **kusho** {och, yech, ochar}, **bof-boqi, tik}** zanur, **band** {bogʻla yop} kabi soʻzlar **kushodan–ochmoq, boftan yopmoq, zadan** {urmoq}, **bastan** {bogʻlamoq} kabi soʻzlarning hozirgi zamon shakllari ushbu asarda qoʻllangan.

Haqiqatan ham dunyoning rivojlangan mamlakatlarining qaysi birini tarixini yoki bugungi kunini oʻrganar ekansiz, talim va tarbiyaning tutgan oʻrni oʻta muhim sanalgan va unga amal qilingan. Shuning uchun ham har bir oʻquvchi va oʻqituvchi mumtoz adabiyotga eʼtibor berib oʻqisa, uni oʻzlashtirsa va bilmagan soʻz va iboralarini lugʻatdan topib oʻrgansa, taʼlim tarbiya uchun ob-u havodek foydalidir. Yuqorida bir „**Boburnoma**“dagi joy nomlari va uning hozirgi oʻzbek tilidagi maʼnolari haqida maʼlumot berishga harakat qildik. Maʼlum boldiki, qaysi millatga yashagan boʻlsa, oʻsha tarixiy joy nomlari, oʻsha tarixiy xalqning tilida berilganini koʻramiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham, oʻzining tarixiy asarida joy nomlarining tarixiy maʼnolari qanday boʻlsa shunday qoldirishga xarakat qilgan. Shuning uchun ham bu asar tarixiy asar sifatida mashhur boʻlgan.